# MARKET ECONOMY AND GOVERNMENT STATISTICS IN UZBEKISTAN

**Maxamadaliyeva E`zoza Rustamxoja qizi**
*Perfect University +998881157545 Maxamadaliyeva@perfectuniversity.uz*

The economy of Uzbekistan kept expanding at a strong pace, with GDP reaching 888.3 trillion Soum ($80.4 billion), or 5.7% in real terms, in 2022. The manufacturing (1.3%), agricultural (0.9%), and construction (0.4%) sectors contributed the remaining portions of the GDP increase, with net product taxes falling (-0.1%). The service sector accounted for the majority of GDP growth (3.2%). The Soum, the official currency of Uzbekistan, lost 3.5% of its value in relation to the US dollar.

The nation's public foreign debt increased by $2.9 billion to $29.2 billion, while its overseas reserves increased by $0.7 billion to $35.8 billion. Data on private external debt was not made public by the government. Uzbekistan's inflation rate increased to 12.3% as a result of the Russian invasion of Ukraine, which increased the cost of food, energy, and logistics.

Table: key economic indicators, 2021-2022

| Key Economic Indicators | 2021 | 2022 |
|---|---|---|
| Nominal GDP (billion USD) | 69.2 | 80.4 |
| Consumer price inflation (percent) | 10.8 | 12.3 |
| Foreign Direct Investment (billion USD) | 2.3 | 2.5 |
| Current account balance (billion USD) | -4.9 | -0.6 |
| Exports (billion USD) | 16.6 | 19.3 |
| Imports (billion USD) | 25.5 | 30.7 |
| External debt, public (billion USD) | 26.3 | 29.2 |

(Source: State Statistics Committee, Central Bank)

The Central Bank increased the benchmark interest rate from 14% to 17% in March 2022, and then reduced it to 15% in July 2022 and 14% in March 2023. This was due to the fact that the war between Russia and Ukraine had less of an adverse effect on Uzbekistan's economy than anticipated, and remittances to the country increased by 2.1 times to $16.9 billion in 2022. Remittances constitute not just the wages of labor migrants from Uzbekistan who migrate abroad, but also the financial transfers made by Russian individuals who immigrate to Uzbekistan, some permanently and some temporarily. In terms of both imports and exports, Uzbekistan's trade turnover increased by 18% to $50 billion, with $19.3 billion coming in. The current trend of import growth (20.4%) surpassing export growth (15.9%) is leading to an increased trade deficit.

The top three export categories were industrial items ($4.4 billion), gold ($4.1 billion), and services ($4 billion). The country's continued industrialization and modernization strategy can still be used to explain Uzbekistan's import distribution,

which includes chemicals and related items (13.8%), machinery and transport equipment (31.4%), and industrial goods (18.8%).

Major Commercial Partners (official statistics, Uzbekistan, 2022).: China, 17.8%, Kazakhstan, 9.2%, Turkey, 6.4%, South Korea, 4.7%, and Russia, 18.6% With $436.8 million in trade, Uzbekistan's commerce with the US stayed relatively stable in 2022, making the US Uzbekistan's 16th largest trading partner. The relatively low amount of trade between the US and UZ can lead to large variations in bilateral trade from year to year. One example of this is the procurement of US-made aircraft for Uzbekistan Airways' fleet through big capital purchases.

The instigator received a 16-year prison sentence. On April 30, 2023, the Constitutional Referendum took place. With more than 90% of voters supporting the modifications, which included extending the President's term from five to seven years, they were approved in the referendum. A snap election was declared on July 9 by President Shavkat Mirziyoyev, who was re-elected on October 24, 2021, and will serve a second five-year term finishing in 2026. The announcement was made on May 8, 2023. With 87.05% of the vote, he won the presidential election on July 9 and will hold office until at least 2030.

Following his victory in the 2016 presidential election, Mirziyoyev put into effect a reform program that transformed Uzbekistan from an isolated, closed nation to one that was willing to work with its neighbors as well as with regional and international forces. In order to move toward a more open, competitive, and market-based economy, the government began enacting the necessary changes in 2017. In January 2022, Uzbekistan adopted its 2022–2026 Development Strategy.
In order to prevent double taxation, Uzbekistan has bilateral agreements on this subject with 55 other nations. As the heir to the dual taxation treaty negotiated between the United States and the Commonwealth of Independent States, the U.S. Internal Revenue Service views Uzbekistan as one of the former Soviet countries now covered by the treaty.

## BIBLIOGRAPGY:

1. Uzbekistan - market overview, International Trade Administration | Trade.gov. Available at: https://www.trade.gov/country-commercial-guides/uzbekistan-market-overview (Accessed: 13 June 2024).

2. World Bank Group (2023) Uzbekistan’s transition to market economy to accelerate by strategic reforms, supported by the World Bank, World Bank. Available at: https://www.worldbank.org/en/news/press-release/2023/12/08/uzbekistan-s-transition-to-market-economy-to-accelerate-by-strategic-reforms-supported-by-the-world-bank (Accessed: 13 June 2024).

# "RIVOJLANGAN MAMLAKATLARNING KONSTITUTSIYASI HAMDA ULARNING ENG MUHIM JIHATLARI"

**Bo'riyev Odil Qobilovich**
*Jinoyat huquqi va Fuqarolik protsessi kafedrasi katta o'qituvchisi Termiz davlat universiteti*
**Abdurofiyeva Nodirabonu**
*Yuridik fakulteti „Yurisprudensiya" (faoliyat turlari bo`yicha) yo`nalishi 1-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** *"Biz huquqlarimiz to`g`risida gapirgan odamlarni har doim mamnuniyat bilan tinglaymiz - u, ammo burch majburiyatlarimizni eslatganlarni esa xush ko`rmaymiz."*

**(E.Bork)**

*Dunyoda juda ham ko`p rivojlangan davlatlar mavjutdir.Ular rivojlanishning hamma sohasida ilg`or hamda birinchilikda bo`lishadi.Nega boshqa mamlakatlar rivojlanishning cho`qisida bo`ladi , yoki qandaydir sir mavjutmi ? Yo`q albatta ,hech qanday sir yo`q, shunchaki bu mamlakatlarda „ huquqiy ong va va huquqiy madaniyat rivojlangan, xolos. Ushbu maqolada rivojlangan mamlakatlarning huquq tizimi va mamlakatni rivojlantirishda tutgan o`rni haqida keng yoritib o`tilgan.*

**Kalit So`Zlar:** *konstitutsiya, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, saylov, referendum, qonun*

Qonunlar ijrosi ustidan nazorat qilish kabi muhim vazifa aynan prokuratura organlariga yuklatilgani bejizga emas, chunki ushbu organ davlat himoyachisi, inson va fuqarolarning huquqlarini himoya qiluvchi organlardan biridir.O`zbekiston Respublikasida "Prokuratura to`g`risidagi " qonun yangi tahriri 2001-yil 29-avgustda qabul qilingan. Ushbu qonun 56 ta moddadan iborat . Ushbu qonunda prokuratura organlarining tuzilishi, tizimi, vakolatlari, majburiyatlari va boshqa funksiyalari haqida keng va batafsil ma`lumot va tushunchalar berib o`tilgan.

O`zbekiston Respublikasi prokuratura organlarining asosiy vazifalari : qonun ustuvorligini ta`minlash, qonuniylikni mustahkamlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlatning qonun bilan qo`riqlanadigan manfaatlarini, O`zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish, huquqbuzarliklarni oldini olish va profilaktika qilishdan iborat.

Prokuratura organlari o`z faoliyatini quyidagi asosiy yo`nalishlari bo`yicha amalga oshiradi:

ovazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, hokimlar va boshqa mansabdor shaxslar tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilish;

ofuqaroning huquq hamda erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan qonunlar ijrosi ustidan nazorat qilish;

oO'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida, vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarining harbiy tuzilmalarida qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat qilish;

otezkor-qidiruv faoliyatni, tergovga qadar tekshiruvni, surishtiruvni, dastlabki tergovni amalga oshiradigan organlar tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat

qilish hamda ularning jinoyatchilikka qarshi kurash borasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish;

ojinoyatlar yuzasidan dastlabki tergov olib boorish

osudlarda jinoyat ishlari ko'rib chiqilayotganda davlat ayblovini quvvatlash, sudlarda fuqarolik ishlarini, ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni hamda iqtisodiy nizolarni ko'rishda ishtirok etish, qonunlarga zid bo'lgan sud hujjatlariga protest keltirish;

osoliq intizomini mustahkamlashga, soliq, valyuta sohasidagi jinoyatlar va huquqbuzarliklarga qarshi kurashga, shuningdek davlatga yetkazilgan iqtisodiy zararni qoplashga qaratilgan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilish;

oushlab turilganlarni, qamoqqa olinganlarni saqlash joylarida, jinoiy jazolarni va jinoyat-huquqiy ta'sirning boshqa choralarini ijro etish chog'ida qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat qilish;

oqonun ijodkorligi faoliyatida hamda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish ishida ishtirok etish.

Prokuratura organlarini tashkil etish va ular faoliyatining asosiy prinsiplari

Prokuratura organlari faoliyatini tashkil etish va ular faoliyatining asosiy prinsiplari birlik, markazlashganlik, qonuniylik, mustaqillik va oshkoralikdir.

Prokuratura organlari O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori rahbarlik qiladigan yagona markazlashgan tizimni tashkil etadi hamda quyi turuvchi prokurorlar yuqori turuvchi prokurorlarga va O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuroriga bo'ysunishi hamda hisobdorligi asosida faoliyat ko'rsatadi.

Yuqori turuvchi prokuror quyi turuvchi prokurorga ko'rsatmalar berishga yoxud uning har qanday, shu jumladan protsessual qarorini o'zgartirish yoki bekor qilishga haqlidir, shuningdek u o'z bo'ysunuvidagi barcha prokurorlarning ishlari to'g'ri tashkil etilishi uchun to'liq javobgardir.

Prokuratura organlarining xodimlari o'z faoliyatlarida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda boshqa qonun hujjatlarining talablariga aniq rioya etishlari va ularni bajarishlari shart. Qonunlarni aniq bajarish va ularga rioya etishdan har qanday chekinish, qanday asoslarga ko'ra qilinishidan qat'i nazar, qonuniylikni buzish deb hisoblanadi va belgilangan javobgarlikka sabab bo'ladi.

Prokuratura organlari o'z vakolatlarini har qanday davlat organlari, jamoat birlashmalari hamda mansabdor shaxslardan mustaqil ravishda, faqat qonunga bo'ysungan holda amalga oshiradilar. Prokuratura organlarining faoliyatiga aralashish taqiqlanadi.

Prokurorning g'ayriqonuniy qaror qabul qilishiga erishish maqsadida unga qanday shaklda bo'lmasin biron-bir ta'sir ko'rsatish yoki faoliyatini amalga oshirishiga to'sqinlik qilish, uning daxlsizligiga tajovuz qilish, shuningdek prokuror yoki tergovchining ruxsatisiz tekshirishlar va dastlabki tergov ma'lumotlarini oshkor etish, prokurorning talablarini bajarmaslik belgilangan tartibda javobgarlikka sabab bo'ladi.

Prokuratura organlarining xodimlari o'z vakolatlari davrida siyosiy partiyalarga a'zolikni to'xtatib turadilar.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar prokurorlari:

har yili tegishincha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesiga, xalq deputatlari Kengashlariga o‘z faoliyati to‘g‘risida hisobot taqdim etadi;

zarur bo‘lgan hollarda, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini qonuniylikning va jinoyatchilikka qarshi kurashning holati to‘g‘risida xabardor qiladi.

Prokuratura organlari qonunlarning ijro etilishini nazorat qilishga va jinoyatchilikka qarshi kurashga doir faoliyati to‘g‘risida jamoatchilikni muntazam xabardor qilish, o‘zining faoliyati to‘g‘risidagi axborotdan jismoniy va yuridik shaxslarning foydalanishini qonunchilikda belgilangan tartibda ta’minlash yo‘li bilan o‘z faoliyatini oshkora amalga oshiradi.

Yuqorida keltirilgan prokuratura organiga ishga qabul qilishga doir masalaga yechim topish maqsadida “ Prokuratura to`g`risidagi ” qonunga murojaat qilsak maqsadga muvofiq bo`lgan bo`lar edi .

Viloyat prokurori bo`lajak xodimni ishga qabul qilish vakolatiga egami?

Ushbu savol hech birimizni o`ylantirmay qo`ymaydi. Qonunga binoan viloyatlar, Toshkent shahar va ularga tenglashtirilgan prokurorlar Bosh prokuror tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.Viloyatlar, Toshkent shahar va ularga tenglashtirilgan prokuraturalarda boshqarmalar va bo`limlar tashkil etiladi va ularning Bosh prokuror tomonidan lavozimga qo`yiladi va lavozimidan ozod etiladi, lekin Boshqarma va bo`limlarning boshliqlari o`rinbosarlari , katta prokuror –kriminalistlar Bosh prokurorning roziligi bilan viloyat, Toshkent shahar hamda unga tenglashtirilgan prokurorlar tomonidan lavozimga tayinlanadi.Bu joyda viloyat prokurorlari qisman vakolatli.Viloyatlar, Toshkent shahar prokurorlarining va ularga tenglashtirgan prokurorlarning yordamchilari, boshqarmalar va bo`limlarning katta prokurorlari va prokurorlari , alohida muhim ishlar bo`yicha katta tergovchilar va tergovchilar viloyatlar, Toshkent shahar va ularga tenglashtirilgan prokurorlar tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

Ushbu organga qabul qilinishi uchun xodimga qo`yiladigan talablar bilan bilan tanishib chiqishimiz lozimdir. “Prokuratura to`g`risidagi “qonunning 6-bo`limi Prokuratura organlarining xodimlari deb nomlangan. Ushbu bobning 43-moddasida xodimlarga ishga qabul qilinishda qo`yilgan talablar haqida ma`lumotlar keltirilgan.

Xodimlarga qo`yiladigan talablar:

ofazilatlari bo‘lgan, zimmalariga yuklanadigan xizmat vazifalarini bajarishga sog‘lig‘i imkon beradigan O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari tayinlanadi.

Alohida hollarda, prokuratura organlaridagi xizmatga iqtisodiyot, moliya, sotsiologiya, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida va boshqa sohalarda oliy ma’lumotga, zarur bilim va tajribaga ega bo‘lgan mutaxassislar qabul qilinishi mumkin.

oO‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori, Qoraqalpog‘iston Respublikasi prokurori, viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar, shaharlar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar lavozimiga yigirma besh yoshdan kichik bo‘lmagan shaxslar tayinlanadi.

oProkuratura organlari xodimlari O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori belgilaydigan tartibda attestatsiyadan o‘tkazilishi lozim.

oProkuratura organlari xodimlari haq to'lanadigan boshqa biron-bir faoliyat turi bilan shug'ullanishi mumkin emas. Ular ilmiy, o'qituvchilik va ijodiy faoliyat bilan faqat asosiy ishdan bo'sh vaqtda shug'ullanishi mumkin.

Bundan tashqari prokuraturaga ishga kirish niyatida bo`lgan shaxslar tegishli komissiya tomonidan olinadigan imtihonlardan o`tishlari zarur bo`ladi.

Bu imtihonlar uch bosqichdan iborat bo`ladi, bular:

- Tegishli Oliy o`quv yurtida o`tilgan darsliklardan tuzilgan testlar jamlanmasi yechiladi;
- Psixologik test yechiladi, bu nomzodning ushbu sohaga nafaqat jismonan, balki ruhiy jihatdan ham loyiq kelishini aniqlashga yordam beradi;
- Hakamlar hayati tomonidan og`zaki savol – javob o`tkaziladi.

Ushbu bosqichlardan muovafaqiyatli o`tgan nomzod ishga qabul qilinadi.

Xulosa:

Prokuratura organlari huquqni muhofaza qiluvchi organlar ichida alohida o`ringga va vazifalarga egadir. Ushbu organ jamiyatda yuz beradigan huquqbuzarliklarga barham beradi , xususiy mulkni himoya qiladi, inson va fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qiladi . Jamiyatda qonunlarning aniq va bir xilda amal qilinishi ustidan prokuror nazoratini amalga oshiradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

Darsliklar.

1.Prokuror nazorati:Darslik.To`ldirilgan va qayta ishlangan nashr.Yuridik adabiyotlar publish,2023.

2.O`zbekiston Respublikasining " Prokuratura to`g`risidagi" qonuni.257-ll-son 29.08.2001.

3.Lex.uz sayti

4.I.Raxmatullayev "Prokuratura organlari to`g`risidagi ' ma`ruza matni .

5.https://proacademy.uz

6.https://e-library.namdu.uz

7.https://yuz.uz

8.https://prokuratura.uz